



O'ZBEK XALQI MILLIY XARAKTER XUSUSIYATLARINI BELGILOVCHI ASOSIY KOMPONENTLARI VA ULARNING MAZMUNI

Usmonova Muattar Bahadirjonovna,

Namangan davlat pedagogika instituti Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1664>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 11

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

milliy xarakter, o'zbek xalqi, milliy mentalitet, qadriyat, mahalla, oila, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, ma'naviyat, etnopsixologiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada o'zbek xalqi milliy xarakter xususiyatlarini belgilovchi asosiy komponentlar ijtimoiy-falsafiy, etnopsixologik va madaniy-antropologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy xarakter tushunchasi xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, turmush tarzi, oilaviy munosabatlari va ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etiladi. O'zbek xalqining milliy xarakterida oilaparvarlik, mahalladoshlik, mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, sabr-toqat, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, andisha, or-nomus, vatanparvarlik va diniy-ma'naviy qadriyatlar muhim o'rin tutishi asoslanadi. Maqolada ushbu komponentlarning mazmuni alohida hodisalar sifatida emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit madaniy tizim sifatida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari milliy xarakter masalasini zamonaviy globallashuv, madaniy muloqot va milliy o'zlikni anglash jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda milliy xarakter tushunchasini yoritishda zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar, xususan, globallashuv, raqamli kommunikatsiya va madaniyatlararo integratsiya jarayonlarining o'zbek jamiyati qadriyat tizimiga ta'siri ham e'tiborga olindi. Milliy xarakter komponentlarining bugungi kunda qayta talqin qilinishi ularning mohiyatini yo'qotishini emas, balki yangi ijtimoiy sharoitlarda funksional jihatdan boyib borishini ko'rsatadi. Shu jihatdan milliy xarakter an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar sintezi sifatida namoyon bo'lib, u shaxsning ijtimoiylashuvi, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, maqolada milliy xarakter stereotipik yondashuvlardan xoli holda, ilmiy-nazariy asosda talqin qilinishi lozimligi ta'kidlanadi. Har bir komponent tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan dinamik hodisa sifatida qaralib, ularning o'zaro bog'liqligi va transformatsion xususiyati ochib beriladi. Natijada, milliy xarakter nafaqat etnopsixologik kategoriya, balki ijtimoiy-falsafiy va madaniy-antropologik tahlil obyekti sifatida ham keng ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 11

KEYWORDS

national character, Uzbek people, national mentality, value, mahalla, family, hospitality, tolerance, spirituality, ethnopsychology

ANNOTATION

This article analyzes the main components that determine the national character of the Uzbek people from socio-philosophical, ethnopsychological and cultural-anthropological perspectives. National character is interpreted as a phenomenon closely connected with the historical memory, social experience, value system, lifestyle, family relations and moral-spiritual views of a nation. The study argues that family orientation, mahalla-based community life, hospitality, respect for elders, patience, tolerance, diligence, moral restraint, honor, patriotism and religious-spiritual values occupy an important place in the national character of the Uzbek people. These components are examined not as isolated features but as an integrated cultural system. The findings show the importance of studying national character in relation to globalization, intercultural dialogue and the development of national identity. Also, in this study, the impact of modern social transformations, in particular, globalization, digital communication and intercultural integration processes on the value system of Uzbek society, was taken into account. The current reinterpretation of the components of the national character does not indicate their loss of essence, but rather their functional enrichment in new social conditions. In this regard, the national character is manifested as a synthesis of traditional and modern values, which plays an important role in the socialization, civic position and spiritual development of the individual. In addition, the article emphasizes that the national character should be interpreted on a scientific and theoretical basis, free from stereotypical approaches. Each component is considered as a dynamic phenomenon formed in the process of historical development, and their interdependence and transformational nature are revealed. As a result, the national character acquires broad scientific significance not only as an ethnopsychological category, but also as an object of socio-philosophical and cultural-anthropological analysis.

Kirish. Milliy xarakter har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-axloqiy va madaniy sifatlar majmuasidir. U xalqning o'zini anglash darajasi, dunyoni idrok etish usuli, ijtimoiy munosabatlarga kirishish madaniyati, qadriyatlarini avloddan-avlodga uzatish mexanizmi hamda hayotiy vaziyatlarga munosabatida namoyon bo'ladi. Milliy xarakter shunchaki ayrim xulq-atvor belgilarining yig'indisi emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, yashash muhiti, mehnat faoliyati, diniy e'tiqodi, oilaviy munosabatlari va ijtimoiy institutlari bilan bog'liq murakkab madaniy hodisadir. Shu jihatdan o'zbek xalqining milliy xarakterini o'rganish xalqning ma'naviy qiyofasini, ijtimoiy birdamlik asoslarini va zamonaviy taraqqiyot jarayonidagi qadriyatlar dinamikasini anglash imkonini beradi.

O'zbek xalqi milliy xakteri uzoq tarixiy taraqqiyot, qadimgi dehqonchilik madaniyati, Buyuk ipak yo'li orqali yuzaga kelgan madaniy muloqot, islom sivilizatsiyasi ta'siri, mahalla va oila institutining barqarorligi, mehnat va hunarmandchilik an'analari asosida shakllangan. O'zbek xalqining xarakterida jamoaviylik, o'zaro yordam, mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, ota-onaga ehtirom, bolajonlik, andisha, sabr-toqat, bag'rikenglik, mehnatsevarlik va or-nomus kabi xususiyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu xususiyatlar milliy xarakter komponentlari sifatida xalqning kundalik hayoti, urf-odatlari,

marosimlari, tili, maqollari, oilaviy tarbiyasi va ijtimoiy munosabatlarida ifodalanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy xarakter masalasini o'rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki global madaniy ta'sirlar, axborot oqimining kuchayishi, migratsiya jarayonlari, shahar madaniyatining kengayishi va raqamli kommunikatsiya shakllari an'anaviy qadriyatlar tizimiga muayyan o'zgarishlar kiritmoqda. Bunday sharoitda milliy xarakter komponentlarini ilmiy jihatdan aniqlash, ularning mazmunini tushuntirish va zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini baholash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Milliy xarakter xalqni boshqa xalqlardan ajratib turuvchi mutlaq va o'zgarmas belgilar majmuidir emas, balki tarixiy sharoit bilan birga rivojlanadigan, yangilanadigan va ijtimoiy tajriba orqali boyib boradigan dinamik tizimdir.

Adabiyotlar tahlili. Milliy xarakter, etnopsixologiya va qadriyatlar tizimi muammosi ijtimoiy-falsafiy hamda madaniy-antropologik tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar tahlili mavzuning nazariy asoslarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida milliy ma'naviyat va milliy xarakter o'zaro uzviy bog'liq hodisalar sifatida talqin qilinib, milliy qadriyatlarining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini alohida ta'kidlanadi. Muallif ma'naviy omillarni jamiyat barqarorligining

asosiy negizi sifatida ko'rsatib, milliy xarakter shakllanishida tarixiy xotira va madaniy merosning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi [1, p. 34–37].

Q.Nazarovning "Qadriyatlar falsafasi" asarida qadriyat tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilinib, u inson faoliyati va ijtimoiy ong strukturasi asosiy element sifatida yoritiladi. Muallif qadriyatlarini milliy xarakter shakllanishining normativ-mazmuniy asosi sifatida ko'rib chiqadi va ularning ijtimoiy ong, xulq-atvor hamda madaniy an'analarga ta'sirini ilmiy asosda izohlaydi [2, p. 58–63].

I. Jabborovning "O'zbek xalqi etnografiyasi" asarida o'zbek xalqining tarixiy turmush tarzi, urf-odatlarini, oilaviy munosabatlari va marosimlari etnografik materiallar asosida yoritilgan. Ushbu manbada mahalla instituti, oilaviy qadriyatlar va jamoaviylik tamoyillari xalqning etnik-psixologik qiyofasini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rsatib beriladi. Ayniqsa, mehmondo'stlik, kattalarga hurmat va jamoaviy yordam kabi xususiyatlar milliy xarakterning barqaror komponentlari sifatida talqin etiladi [3, p. 112–118].

U.Qoraboevning "O'zbek xalqi bayramlari" asarida xalq bayramlari va marosimlarining ijtimoiy-ma'naviy funksiyalari tahlil qilinadi. Muallif bayramlarni nafaqat madaniy hodisa, balki ijtimoiy integratsiya va milliy identifikatsiya vositasi sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv milliy xarakter komponentlarining amaliy ifodasi sifatida urf-odatlar va marosimlarning ahamiyatini ochib beradi [4, p. 76–81].

F.Musaevning ilmiy ishlari demokratik davlat qurilishi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining roli tahlil qilinadi. Ushbu kontekstdagi qarashlar milliy xarakter komponentlarining zamonaviy ijtimoiy tizim bilan uyg'unlashuvini tushinishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Muallif fuqarolik faolligi, ijtimoiy mas'uliyat va huquqiy ongni milliy qadriyatlar bilan integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [5, p. 91–95].

S.Safoyevning "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" asarida milliy g'oya va ma'naviyatning ijtimoiy funksiyalari keng yoritilib, milliy xarakter shakllanishida mafkuraviy omillarning o'rni asoslab beriladi. Muallif milliy g'oyani jamiyatning birlashtiruvchi kuchi sifatida talqin etib, uning qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi [6, p. 45–49].

G'arb olimlaridan C.Geertz madaniyatni "ma'nolar tizimi" sifatida izohlab, inson xulq-atvori ramziy tizimlar orqali shakllanishini ta'kidlaydi. [7, p. 89–92]. G. Hofstede esa madaniyatlararo farqlarni qadriyat o'lchovlari asosida tahlil qilib, individualizm va kollektivizm o'rtasidagi farqlarni milliy xarakter shakllanishining muhim omili sifatida ko'rsatadi [8, p. 120–125].

H.C.Triandisning tadqiqotlarida individualizm va kollektivizm tushunchalari ijtimoiy psixologik model sifatida ishlab chiqilib, jamiyatdagi xulq-atvor shakllanishining madaniy determinantlari ochib beriladi [9, p. 54–58]. S.H. Schwartz esa qadriyatlarining universal strukturasi tahlil qilib, turli jamiyatlarda qadriyatlar ierarxiyasi milliy xarakterga bevosita ta'sir qilishini empirik ma'lumotlar asosida isbotlaydi [10, p. 18–22].

T.Dadabaevning tadqiqotlarida mahalla instituti zamonaviy o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy identifikatsiya va jamoaviy xotira markazi sifatida tahlil qilinadi. Muallif mahallaning an'anaviy va zamonaviy funksiyalarini solishtirib, uning milliy xarakter saqlanishidagi rolini asoslaydi [11, p. 130–134]. E.W. Sievers esa mahallani tarixiy-siyosiy kontekstda o'rganib, uning ijtimoiy nazorat va jamoaviy birdamlik mexanizmi sifatidagi ahamiyatini ochib beradi [12, p. 102–107].

A.D.Smith milliy identitetni tarixiy xotira, madaniy meros va ramziy tizimlar asosida shakllanadigan fenomen sifatida talqin qilib, milliy xarakter va milliy identitet o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni nazariy jihatdan asoslaydi [13, p. 65–70]. R. Benedict esa madaniyatlarini "xulq-atvor naqshlari" sifatida o'rganib, har bir xalq o'ziga xos psixologik modelga ega ekanligini ta'kidlaydi [14, p. 41–45].

Shuningdek, N.A.Shermuxe'dovning falsafa va fan metodologiyasiga oid qarashlari milliy xarakter tadqiqotida metodologik yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi [15, p. 112–116].

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar milliy xarakter tushunchasini ijtimoiy-falsafiy, etnopsixologik va madaniy-antropologik nuqtayi nazardan o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotlar milliy xarakter komponentlarini alohida xususiyatlar yig'indisi sifatida emas, balki qadriyatlar tizimi, ijtimoiy institutlar va madaniy ramzlar bilan uzviy bog'liq yaxlit fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda milliy xarakter xususiyatlarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Asosiy metodologik asos sifatida ijtimoiy-falsafiy, etnopsixologik va madaniy-antropologik yondashuvlar tanlandi. Bu yondashuvlar milliy xarakter komponentlarini xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy institutlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: analiz va sintez – milliy xarakter

komponentlarini alohida ajratish va ularni yaxlit tizim sifatida umumlashtirish uchun; qiyosiy tahlil – o'zbek milliy xarakter xususiyatlarini boshqa xalqlar madaniy modellari bilan solishtirish uchun; tarixiylik prinsipi – milliy xarakter shakllanishining tarixiy bosqichlarini aniqlash uchun; tizimli yondashuv – barcha komponentlarni o'zaro bog'liq yaxlit struktura sifatida ko'rib chiqish uchun. Shuningdek, empirik kuzatuv va etnografik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'zbek xalqining kundalik hayoti, urf-odatlarini va ijtimoiy amaliyotlarida milliy xarakter komponentlarining namoyon bo'lishi o'rganildi. Metodologik yondashuvlar majmuasi milliy xarakter fenomenini statik emas, balki dinamik va ijtimoiy-madaniy rivojlanish bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin qilishga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi milliy xarakterining markaziy komponentlaridan biri oilaparvarlikdir. Oila o'zbek jamiyatida nafaqat biologik va maishiy birlik, balki ma'naviy tarbiya, axloqiy nazorat, ijtimoiy moslashuv va qadriyatlarini uzatishning asosiy instituti hisoblanadi. O'zbek oilasida ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasiga mas'uliyat, qarindoshlik rishtalarini asrash, katta-kichik munosabatlaridagi tartib, mehr-oqibat va o'zaro yordam asosiy me'yorlar sifatida namoyon bo'ladi. Oilaparvarlik shaxsning individual manfaatlarini inkor etmaydi, balki ularni oila sha'ni, avlod davomiyligi va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtiradi. Shu sababli o'zbek milliy xarakterida "men" tushunchasi ko'pincha "biz", "oila", "urug'", "mahalla" va "el-yurt" tushunchalari bilan bog'liq holda shakllanadi.

O'zbek milliy xarakterining yana bir asosiy komponenti mahalladoshlik va jamoaviylikdir. Mahalla o'zbek jamiyatida tarixan shakllangan ijtimoiy makon bo'lib, unda qo'shnichilik, hamjihatlik, hashar, maslahat, yordam va ijtimoiy nazorat kabi qadriyatlar mujassam bo'lgan. Mahalla insonni yolg'iz shaxs sifatida emas, balki jamoaning bir qismi sifatida tarbiyalaydi. To'y, aza, bayram, obodonlashtirish, yordamga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash kabi amaliyotlar jamoaviylikni mustahkamlaydi. Shu ma'noda mahalla milliy xarakter komponentlarini amaliy hayotda namoyon qiluvchi muhim madaniy institutdir.

Mehmondo'stlik o'zbek xalqi milliy xarakterining eng yorqin belgilaridan biridir. Mehmonni e'zozlash, unga hurmat ko'rsatish, dasturxon yozish, yaxshi so'z bilan kutib olish va xayrixohlik bildirish o'zbek xalqining qadimiy axloqiy me'yorlari qatoriga kiradi. Mehmondo'stlik faqat maishiy odat emas, balki insonparvarlik, ochiqlik, bag'rikenglik va ijtimoiy hurmatning ifodasidir. O'zbek madaniyatida mehmon kelishi xonadonga baraka, muloqot va ijobiy ruh olib kiradigan hodisa sifatida baholanadi. Bunday qarash xalqning ko'p asrlik savdo, madaniy almashinuv va turli xalqlar bilan muloqot tajribasi natijasida shakllangan. Mehmondo'stlik milliy xarakterda ochiqko'ngilik, saxovat, hurmat va inson qadrini ulug'lash kabi fazilatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Kattalarga hurmat va ijtimoiy iberaxiyani e'tirof etish ham o'zbek milliy xarakterining muhim tarkibiy qismidir. O'zbek jamiyatida yosh, tajriba, ota-onalik maqomi, ustozlik, oqsoqollik va ijtimoiy mas'uliyat alohida qadrlanadi. Kattaga salom berish, maslahat so'rash, ota-onaning duosini olish, ustozga ehtirom ko'rsatish, oqsoqol fikriga quloq tutish kabi odatlar shaxsning axloqiy kamolot mezonlaridan biri sifatida baholanadi. Bu komponent jamiyatda avlodlararo uzviylikni, tarbiyaviy davomiylikni va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Kattalarga hurmat ko'r-ko'rona bo'yusinish emas, balki tajriba, donishmandlik va hayotiy saboqni qadrlashga asoslangan ijtimoiy madaniyatdir.

O'zbek xalqi milliy xarakterida sabr-toqat va bardoshlilik alohida o'rin tutadi. Tarixiy sharoit, tabiiy muhit, mehnat jarayonlari, ijtimoiy sinovlar va turmush qiyinchiliklari xalq ongida sabr, chidam, vazminlik va murosala madaniyatini shakllantirgan. Sabr-toqat o'zbek madaniyatida passivlik yoki befarqlik sifatida emas, balki hayotiy sinovlarga aql, vazminlik va ma'naviy kuch bilan munosabat bildirish fazilati sifatida talqin qilinadi. Bunday xarakter xususiyati oilaviy munosabatlarda, qo'shnichilikda, mehnat jarayonida va ijtimoiy ziddiyatlarini yumshatishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda sabr-toqat faol fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik va mas'uliyat bilan uyg'unlashgandagina ijobiy ijtimoiy natija beradi.

Mehnatsevarlik ham o'zbek xalqining milliy xarakterini belgilovchi asosiy komponentlardan biridir. O'zbek xalqi tarixan dehqonchilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo va kasb-hunar bilan shug'ullangan. Mehnatga hurmat, rizqni halol topish, kasbni e'zozlash, hunar o'rganish, farzandni mehnatga o'rgatish xalq tarbiyasining muhim yo'nalishi bo'lib kelgan. "Mehnat qilgan elda aziz", "Hunarli kishi xor bo'lmas" kabi maqollar xalq ongida mehnatning axloqiy va ijtimoiy qiymatini ifodalaydi. Mehnatsevarlik o'zbek xarakterida tirishqoqlik, mas'uliyat, sabr, halollik va yaratuvchanlik bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Bag'rikenglik o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan komponentdir. O'zbekiston hududi qadimdan turli xalqlar, tillar, dinlar va madaniyatlar tutashgan makon bo'lgan. Shu bois

o'zbek xalqining milliy xarakterida boshqa madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, murosalar qilish, turli qarashlarga nisbatan sabrli bo'lish va tinch-totuv yashashga intilish kuchli namoyon bo'ladi. Bag'rikenglik o'zbek madaniyatida mehmondo'stlik, mahalladoshlik, qo'shnichilik va diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu fazilat jamiyatda ijtimoiy totuvlik, millatlararo hamjihatlik va madaniy muloqotning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Andisha, hayo, or-nomus va ibo tushunchalari ham o'zbek milliy xarakterining nozik ma'naviy qatlamini tashkil etadi. Andisha insonning o'z xatti-harakatini boshqalarning holati, jamiyat me'yori va axloqiy mas'uliyat bilan muvofiqlashtira olish qobiliyatidir. Hayo va ibo shaxsning ichki madaniyati, o'zini tutish me'yori, muomala odobi va axloqiy chegaralarni his qilishida ko'rinadi. Or-nomus esa shaxs, oila va avlod sha'nini asrash, halollik va vijdon bilan yashash tamoyillarini ifodalaydi. Bu komponentlar o'zbek xalqining xulq-atvorida vazminlik, odoblilik, kamtarlik va mas'uliyatni kuchaytiradi. Biroq zamonaviy sharoitda ushbu qadriyatlar shaxs erkinligi, huquqiy madaniyat va inson qadrini hurmat qilish tamoyillari bilan uyg'un holda talqin etilishi zarur.

Vatanparvarlik va el-yurtga sadoqat o'zbek milliy xarakterining muhim ijtimoiy-ma'naviy komponentidir. O'zbek xalqining tarixiy xotirasida ona yurt, tuproq, avlodlar merosi, til, din, madaniyat va mustaqillik g'oyasi alohida qadrlanadi. Milliy xarakterdagi vatanparvarlik oiladan, mahalladan, ona tiliga hurmatdan va tarixiy xotiradan boshlanadi. Shu sababli milliy xarakter komponentlari orasida vatanparvarlik ularni umumlashtiruvchi, xalqni umumiy maqsad sari birlashtiruvchi ma'naviy omil sifatida qaraladi. Diniy-ma'naviy qadriyatlar ham o'zbek xalqining milliy xarakteriga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Islomiy axloq, tasavvufiy tafakkur, halollik, saxovat, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, qo'shniga yaxshilik qilish, yetim-esirga yordam berish kabi qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va axloqiy qarashlarida mustahkam o'rin olgan. Diniy-ma'naviy qadriyatlar milliy xarakterda insonparvarlik, poklik, shukronalik, sabr, kechirimlilik va adolatga intilish sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'zbek milliy xakteri faqat diniy qadriyatlar bilan emas, balki qadimgi turkiy an'analar, mahalliy urf-odatlar, dunyoviy madaniyat va zamonaviy fuqarolik qadriyatlari bilan ham boyigan murakkab tizimdir.

O'zbek xalqi milliy xarakterini tashkil etuvchi komponentlar bir-biridan ajralgan holda mavjud emas. Oilaparvarlik mahalla bilan, mahalla jamoaviylik bilan, jamoaviylik o'zaro yordam va bag'rikenglik bilan, mehmondo'stlik esa saxovat va insonparvarlik bilan bog'liq. Andisha va or-nomus esa ijtimoiy munosabatlarda axloqiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Demak, o'zbek milliy xarakterining har bir komponenti alohida mazmunga ega bo'lsa-da, ular birgalikda xalqning ma'naviy qiyofasini belgilovchi yaxlit tizimni hosil qiladi.

Milliy xarakter masalasida ehtiyotkor ilmiy yondashuv zarur. Chunki har qanday xalq xarakterini faqat ijobiy sifatlar bilan tasvirlash yoki uni o'zgarimas stereotip sifatida ko'rsatish ilmiy jihatdan to'liq bo'lmaydi. Milliy xarakter tarixiy jarayonlarda shakllanadi va jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ta'limiy o'zgarishlarga mos ravishda yangilanadi. Masalan, an'anaviy jamoaviylik zamonaviy sharoitda fuqarolik faolligi, ijtimoiy sheriklik va volontyorlik madaniyati bilan boyishi mumkin. Mehmondo'stlik turizm va madaniy diplomatiya resursiga aylanishi mumkin. Mehnatsevarlik esa innovatsion tafakkur, kasbiy kompetensiya va tadbirkorlik bilan uyg'unlashganda jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

Muhokama. Globallashuv jarayonida milliy xarakter komponentlarining mazmuni ham qayta talqin qilinmoqda. Yosh avlodning axborot madaniyati, xorijiy tillarni o'rganishi, dunyoqarashining kengayishi va raqamli muhitda ijtimoiylashuvi an'anaviy qadriyatlarini inkor etmaydi, balki ularni zamonaviy shakllarda ifodalash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek milliy xarakterini saqlash deganda faqat o'tmishdagi odatlarni takrorlash emas, balki ularning

ma'naviy mohiyatini zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish tushunilishi lozim. Oilaparvarlik shaxsiy mas'uliyat va gender tengligi bilan, kattalarga hurmat tanqidiy fikrlash va muloqot madaniyati bilan, jamoaviylik esa huquqiy ong va fuqarolik faolligi bilan uyg'unlashganda milliy xarakter zamonaviy jamiyatning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbek milliy xarakterining asosiy komponentlari ta'lim va tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Maktab, oliy ta'lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligida yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik va muloqot madaniyatini shakllantirish mumkin. Biroq bu jarayon faqat nasihat yoki an'anaviy targ'ibot bilan cheklanmasligi kerak. Milliy xarakter komponentlari hayotiy vaziyatlar, loyiha ishlari, ijtimoiy faollik, tarixiy merosni o'rganish, madaniy tadbirlar va amaliy tarbiya orqali o'zlashtirilganda samarali natija beradi. Shu jihatdan milliy xarakter masalasi pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik va falsafa fanlari kesishmasida o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb ilmiy muammodir.

O'zbek xalqi milliy xarakter xususiyatlarini belgilovchi asosiy komponentlar xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy institutlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Oilaparvarlik, mahalladoshlik, jamoaviylik, mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, sabr-toqat, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, andisha, or-nomus, vatanparvarlik va diniy-ma'naviy qadriyatlar o'zbek milliy xarakterining mazmunini tashkil etuvchi muhim tarkibiy qismlardir. Ushbu komponentlar xalq hayotida alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'langan ma'naviy-madaniy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek milliy xakteri statik, o'zgarimas va faqat tarixiy merosga mansub hodisa emas. U zamonaviy ijtimoiy jarayonlar, globallashuv, ta'lim, madaniy muloqot va fuqarolik jamiyati rivoji bilan birga yangilanib boradigan dinamik tizimdir. Shu sababli milliy xarakter komponentlarini zamonaviy talablarga mos ravishda ilmiy talqin qilish, ularni yosh avlod tarbiyasida, madaniy siyosatda, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda va milliy o'zlikni anglash jarayonida samarali qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalqining milliy xakteri o'z mazmunida insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnat, hurmat, bag'rikenglik va yurtga sadoqat kabi yuksak qadriyatlarini mujassam etgani bilan milliy taraqqiyotning muhim ma'naviy asoslaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi milliy xakteri ko'p qatlamli, tarixiy jihatdan shakllangan va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab tizimdir. Milliy xarakter komponentlari – oilaparvarlik, mahalladoshlik, jamoaviylik, mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, sabr-toqat, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, andisha, or-nomus, vatanparvarlik va diniy-ma'naviy qadriyatlar – xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotida chuqur ildiz otgan barqaror ijtimoiy-psixologik xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ushbu komponentlar alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda yaxlit madaniy tizimni tashkil etadi. Ular xalqning dunyoqarashi, xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qadriyatlarida integrativ shaklda ifodalanadi. Shu bois milliy xakter statik hodisa emas, balki tarixiy rivojlanish jarayonida yangilanib boruvchi dinamik ijtimoiy fenomen sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, globallashuv va zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida milliy xarakter komponentlarining mazmuni yangi talqin va funksional o'zgarishlarga ega bo'layotgani aniqlandi. An'anaviy qadriyatlar zamonaviy fuqarolik jamiyati tamoyillari, raqamli madaniyat va madaniyatlararo muloqot bilan uyg'unlashib, o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Tadqiqot yakunida shuni ta'kidlash joizki, milliy xakter komponentlarini ilmiy asosda o'rganish yosh avlod tarbiyasi, milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
2. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2004. – 196 б.
3. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 320 б.
4. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 240 б.
5. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 224 б.
6. Сафаев С. Миллий ғоя ва маънавият асослари. – Тошкент: Маънавият, 2015. – 208 б.
7. Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973. – 470 p.
8. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – 2nd ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. – 596 p.

9. Triandis H.C. Individualism and Collectivism. – Boulder: Westview Press, 1995. – 259 p.
10. Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65.
11. Dadabaev T. Community Life, Memory and a Changing Nature of Mahalla Identity in Uzbekistan // Journal of Eurasian Studies. – 2013. – Vol. 4, № 2. – P. 127–141.
12. Sievers E.W. Uzbekistan's Mahalla: From Soviet to Absolutist Residential Community Associations // The Journal of International and Comparative Law at Chicago-Kent. – 2002. – Vol. 2. – P. 91–158.
13. Smith A.D. National Identity. – Reno: University of Nevada Press, 1991. – 226 p.
14. Benedict R. Patterns of Culture. – Boston: Houghton Mifflin, 1934. – 290 p.
15. Шермухамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси. – Тошкент: Университет, 2005. – 336 б.